



1. Rasm asosida suhbatlashing.



**bilimlar  
maskani**

**ikkinchi  
uyimiz**

**muqaddas  
dargoh**

2. O'zingiz o'qiydigan maktab haqida so'zlab bering.



## Salom, maktab!

*Muhiddin Omon*

Salom, maktab, jon maktab,  
Bilimlarga kon maktab.  
Aql-u odob, tarbiya  
Berguvchi makon maktab!

Ustozlarim mehribon,  
O'qi, derlar bearmon.  
Sen Istiqlol farzandi,  
Kamolga yet, bolajon!

Sog‘lom bo‘l-u, polvon bo‘l,  
El-u yurtga posbon bo‘l.  
Bel olishsang maydonda,  
Or-nomusi osmon bo‘l!

Vatanning baxti uchun,  
Sarf aylagin bor kuching.  
Olib elning duosin,  
Ravo qil muddaosin.

Bu tilakka labbay deb,  
Javob beraman tayin.  
Ma‘rifat ziyosidan  
Ulg‘ayaman kun sayin.

O‘zbekiston nomini  
Jahonga qilgum doston,  
Chunki boshqa topilmas,  
Dunyoda bunday bo‘ston!



1. She‘rni o‘qiyotganingizda ko‘z oldingizga nimalar keldi?
2. She‘rda maktabga qanday ta‘rif berilgan?
3. Nima uchun maktabni bilimlar koni deb ataymiz?



muddao – kishining dilidagi maqsadi, niyati  
 bo‘ston – gullagan, yashnagan joy  
 ma‘rifat – kishilarning bilimini, madaniyatini  
 oshirishga qaratilgan faoliyat  
 jahon – olam, dunyo  
 tilak – istak, xohish



1. Jahon, tilak so‘zlarining o‘rniga ma‘nodosh so‘zni qo‘yib, she‘rni qayta o‘qing.
2. Nimani kuzatdingiz?

Quyida berilgan harflardan boshlanadigan maktabga oid so‘zlarni toping.

M

A

K

T

A

B

3. Hikmatli so‘zni o‘qing. Mazmunini izohlang.

Maktab – kema, ilm – dengiz.

4. Fikrni davom ettiring.

Maktab – ikkinchi uyimiz, chunki...



She‘rni ifodali o‘qing.